

SANOAT KORXONASI BOZORINING RIVOJLANISHI VA UNDA KICHIK BIZNESNING O'RNI

Usmonova Dilfuza Ilhomovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
marketing kafedrası dotsenti

ORCID: 0009-0008-9523-9853

E-mail: usmanova.dilfuza@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada metallurgiya sanoatining rivojlanishi viloyatda qurilish, transport, energetika va boshqa sohalarda ishlatiladigan metall mahsulotlarga bo'lgan talabni oshirilishi, Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari, kichik biznes subyektlari viloyat iqtisodiyotining turli tarmoqlarida faoliyat yuritilishi, metall mahsulotlarini ishlab chiqarish, sotish va qayta ishlash ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: biznes, bozor, qurilish, transport, energetika, metall mahsulotlar.

Аннотация

В данной статье рассматривается развитие металлургической промышленности региона, рост спроса на металлопродукцию, используемую в строительстве, транспорте, энергетике и других отраслях, малый бизнес, осуществляющий деятельность на территории Ташкентской области, деятельность субъектов малого бизнеса в различных отраслях экономики региона, а также производство, реализация и переработка металлопродукции.

Ключевые слова: бизнес, рынок, строительство, транспорт, энергетика, металлопродукция.

Abstract

This article examines the development of the metallurgical industry in the region, the increase in demand for metal products used in construction, transport, energy and other sectors, small businesses operating in the Tashkent region, the activities of small businesses in various sectors of the regional economy, and the production, sale and processing of metal products.

Keywords: business, market, construction, transport, energy, metal products.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida qora metallurgiya rivojlanishi iqtisodiyotning zamonaviy rivojlanish bosqichining eng muhim ustuvor umumdavlat vazifasidir. Ishlab chiqarishning uzluksiz rekonstruksiyasi, texnik qayta jihozlanishi va modernizatsiyasi yuqori sifatli raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishga imkon beradi u respublikaning sanoat korxonalariga va qurilish industriyasiga mahsulot yetkazib beradi, shuningdek eksportga ham yuklab jo'natadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyatini rivojlantirish Dasturi to'g'risida" 2020-yil 28-dekabrda PQ-4937-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2021-2023-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qaroriga muvofiq

“O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyati tomonidan “Quyuv-prokatlash kompleksini qurish” yirik investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda. Loyihani amalga oshirish muddati – 2020-2024-yillar. “Quyuv-prokatlash majmuasini qurish” loyihasi eng yirik investitsiya loyihasidir. Bu loyiha asosida kombinatda 1,04 million tonna import o‘rnini bosadigan, eksportbop, issiq holda prokatlangan po‘lat list o‘ramlari ishlab chiqariladi. Ushbu loyiha amalga oshirilishi natijasida kombinatning ishlab chiqarish quvvatlari deyarli ikki baravarga oshadi. Metallurgiya uskunalari yetkazib berishda jahonda yetakchi bo‘lgan “Daniyeli” (Italiya) kompaniyasi hamda sanoat obyektlarini qurishda katta xalqaro tajribaga ega bo‘lgan pudratchi “Ronesanc Avstriya” (Turkiya) kompaniyasi bu investitsiya loyihasini amalga oshirishda hamkorlik qilmoqda. Ayni kunlarda Quyuv-prokatlash majmuasini qurish ishlari qizg‘in davom etmoqda.

ADABIYOTLARNING SHAHRI

Marketing bo‘yicha mavjud adabiyotlar tahlili marketingning zamonaviy tamoyillari, brendni targ‘ib qilish usullari va iste‘molchilar talablariga moslashuvchan yondashuvni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Marketing strategiyalari haqida mutaxassis R.G.Ibragimov o‘zining darsligida quyidagi fikrni yuritadi: “marketing strategiyasi deganda ma‘lum muddatga belgilangan korxonaning bozordagi xatti-harakatlari tamoyilining modelidan foydalanish tushuniladi. Uning yordamida korxonada o‘z muvaffaqiyatini ta‘minlashga intiladi”. Marketing strategiyasini rivojlantirish va ularni amalda qo‘llash bo‘yicha kuplab iqtisodchi olimlar shug‘ullanib kelgan Ular qatoriga F.Kotler, David Aeker, Klayton Christensen, Seth Godin, Kevin Keller, Byron Sharp, Jay Bayer kabi taniqli olimlarni kiritishimiz mumkin.

Mamlakatimizda qator yillar davomida marketing sohasida olib borilgan izlanishlar milliy xususiyatlardan kelib chiqqan xolda marketing nazariyasini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan olimlarni ham e‘tirof etish lozim. Bularga R.Ibragimov, YO.Abdullaev, A.Saliev, M.SHarifxo‘jaev, D.Raximova, SH.Ergashxodjaeva, Sh.Musayeva va boshqalarni kiritish mumkin.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda tizimli yondashuv, marketing tahlili, taqqoslash va raqamli ko‘rsatkichlarni baholash usullari qo‘llanilgan. Ijtimoiy media platformalaridagi ma‘lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish uchun ommaviy kuzatuv usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Toshkent viloyatining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari yillar davomida ijobiy o‘shish sur‘atlariga ega bo‘lib kelmoqda. Buni YaHM, sanoat, qishloq xo‘jaligi va tashqi savdo ko‘rsatkichlarida kuzatishimiz mumkin bo‘ladi.


1-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, Toshkent viloyatida YaHM hajmi 2015-2025-yillarda ijobiy darajada o‘shib kelmoqda(mos ravishda 64.8% dan 50.1%).Shu bilan birga, sanoat, qishloq xo‘jaligi, asosiy kapitalga investitsiyalar va xizmatlarda ham ijobiy o‘shishni kuzatishimiz mumkin bo‘ladi.eksportning o‘shishiga nisbatan importning yuqori darajada o‘shishi mamlakatimiz tashqi savdo balansiga

sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsada, umumiy holat eksportning o'sishini ijobiy holat deb aytsa bo'ladi (1-rasm).

1-jadval.

Toshkent viloyatining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining 2015–2025-yillardagi dinamikasi¹

Yil	YaHM	Sanoat	Qurilish	Bandlik
2015	64.8	30.8	70.7	76.8
2016	66.2	34.0	73.8	76.9
2017	63.3	30.0	77.2	75.1
2018	57.3	28.9	75.1	73.2
2019	49.8	22.1	79.6	72.8
2020	49.2	22.3	80.8	70.8
2021	46.8	17.3	76.4	69.8
2022	46.5	19.9	75.0	70.0
2023	48.7	23.7	79.1	70.6
2024	53.9	29.8	83.1	70.8
2025	50.1	26.0	78.6	71.2



1-rasm. Toshkent viloyati hududlar kesimida (sanoat mahsulotlari misolida)²

Toshkent viloyatida 2024-yilda sanoat mahsuloti hajmi 139124,8 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 130.02 %ni


¹ Muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi

tashkil etgan. Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulush Olmaliq shahar (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 31%) Chirchiq (11 %), Qibray (9 %) Ohangaron (7%) Bekobod va Angren shahar (6 %) hamda eng kichik ulush Parkent (1%), Chinoz (1 %) shaharlarida kuzatilgan.

Toshkent viloyati O‘zbekistonning sanoat markazlaridan biri bo‘lib, metallurgiya sanoati viloyat iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadi. 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 37,2%ini metallurgiya sanoati tashkil etdi, bu esa jami 44 428,9 milliard so‘mga teng bo‘ldi..Metallurgiya sanoatining rivojlanishi viloyatda qurilish, transport, energetika va boshqa sohalarda ishlatiladigan metall mahsulotlarga bo‘lgan talabni oshirmoqda.Toshkent viloyatida 2024-yil 1-oktyabr holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari soni 36 484 tani tashkil etdi. Kichik biznes subyektlari viloyat iqtisodiyotining turli tarmoqlarida faoliyat yuritib, metall mahsulotlarini ishlab chiqarish, sotish va qayta ishlash kabi sohalarda ham o‘z o‘rniga ega.Masalan, Yangiyo‘l tumanidagi “Tinchlik” kichik sanoat zonasida hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasi tashkil etilib, unda metallurgiya sohasidagi kichik biznes subyektlari o‘z mahsulotlarini namoyish etishdi.

Viloyatda metall mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi so‘nggi uch yilda 759 milliard so‘mdan 3,9 trillion so‘mgacha oshdi. Bu o‘sish mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishning kengayishi bilan bog‘liq bo‘lib, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishga erishildi..Kichik biznes subyektlari ushbu jarayonda faol ishtirok etib, mahalliyashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish va yetkazib berishda muhim rol o‘ynamoqdalar (2-rasm; 2-jadval).



2-rasm Toshkent viloyatida metall ishlab chiqarish hajmi (mlrd so‘m)¹

¹ Muallif ishlanmasi

2-jadval.
Toshkent viloyatida metall ishlab chiqarish hajmi (mlrd so‘m¹)

Yillar	2021	2022	2023	2024
Ishlab chiqarish hajmi (mlrd.so‘m)	759	1650	2830	3900
O‘sish sur‘ati (%)	-	217.39	372.86	513.83

Ko‘rinib turibdiki, 2021–2024-yillar davomida metall mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5 baravardan ortiq oshgan. Bu o‘sish mahalliy ishlab chiqaruvchilarning, xususan kichik biznes subyektlarining faol ishtiroki bilan bog‘liq (3-jadval).

3-jadval.
Toshkent viloyatida kichik biznes subyektlarining o‘sishi (2020–2024)²

Yillar	Soni (ta)	O‘sish sur‘ati
2020	25100	-
2021	28700	+14.3%
2022	31400	+9.4%
2023	34000	+8.3%
2024	36484	+7.3%

Har yili kichik biznes subyektlari soni oshib bormoqda. Bu esa sanoat tarmoqlarida, jumladan metallurgiya sohasida ham ularning ishtiroki kuchayganini anglatadi.

O‘zbekistonda qora metallurgiya sohasi asosan “O‘zmetkombinat” AJ (O‘zbekiston Metallurgiya Kombinati) faoliyati bilan ifodalanadi. Bundan tashqari, mashinasozlik korxonalarining kichik quyish sexlari ham bu sohada muhim o‘rin egallaydi. Respublikaning qora metallurgiya mahsulotlarining asosiy qismini aynan Toshkent viloyati ishlab chiqaradi. Hududdagi yetakchi ishlab chiqaruvchi korxonada esa Bekobod shahrida joylashgan “O‘zmetkombinat” AJ hisoblanadi.

Mashinasozlik sanoatiga qarashli quyish sexlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar mamlakatdagi po‘lat ishlab chiqarish umumiy hajmining atigi 0,1 foizini tashkil etadi. Ushbu mahsulotlar asosan ichki ehtiyojlar uchun ishlatiladi va milliy metallurgiya ishlab chiqarishiga katta ta‘sir ko‘rsatmaydi.

Toshkent quvur zavodi kichik diametrli quvurlar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi. Shu asosda “O‘zmetkombinat” AJ O‘zbekiston va butun Markaziy Osiyodagi yagona po‘lat va prokat metall mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi yirik korxonada hisoblanadi.

Korxonada mamlakatdagi qora metallurgiya sanoatining asosiy ustuniga aylangan bo‘lib, u barcha tarmoqlar bilan bevosita aloqada faoliyat yuritadi. Mutaxassislar fikriga ko‘ra, respublikaning prokat metall mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojining 36,1

¹ Muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi

foizi ushbu korxonada tomonidan qora metall parchalarini qayta ishlash orqali ta'minlanadi. Qolgan 63,9 foizi Rossiya, Qozog'iston va Ukraina kabi davlatlardan import qilinadi.

Monopol holatga ega bo'lgan "O'zmetkombinat" AJ ichki bozordagi o'z mahsulotlarini davlat tomonidan belgilangan tartibda taqsimlaydi. Mahsulotlarining katta qismi mamlakat ichida ishlatiladi, qolgan qismi esa tashqi bozorga eksport qilinadi.

Respublikada mavjud bo'lgan mehnat kuchi, tabiiy gaz, elektr energiyasi va temir rudasi zaxiralari, shuningdek, iqtisodiyotning metall mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojining ortib borayotgani qora metallurgiya sohasini jadallashtirilgan rivojlantirish uchun ijobiy sharoit yaratadi.

Shu bilan birga, faqat ikkilamchi xomashyoga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni mamlakat ehtiyojlarini to'liq qondirish imkonini bermaydi. Tahlillar ko'rsatmoqda-ki, O'zbekiston o'zining foydali qazilma resurslari hisobiga bu ehtiyojlarni to'liq ta'minlash salohiyatiga ega.

Bundan kelib chiqadiki, mamlakatda to'liq metallurgik siklga ega yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, mavjud konlardagi mineral xomashyodan foydalanish orqali po'lat prokat mahsulotlariga bo'lgan ichki ehtiyojni qondirish imkonini beradi.

O'zbekistonda temir rudasi boyliklari mavjud, biroq ular hali to'liq o'zlashtirilmagan. Respublika Geologiya qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra, quyidagi temir ruda konlari o'rganilgan:

- Syuren-Ata (Toshkent viloyati)
- Temirkan (Jizzax viloyati)
- Tebinbulok (Qoraqalpog'iston Respublikasi).

Shuningdek, "O'zmetkombinat" AJ faoliyati davomida to'planayotgan po'lat eritish shlaklari ham qora metallurgiya uchun muhim qo'shimcha xomashyo hisoblanadi. Hozirgi kunda 3 ming tonnadan ortiq shlak zaxirasi mavjud bo'lib, har yili 50 ming tonnagacha yangi shlak hosil qilinadi. Ushbu chiqindilardan cho'yan ajratib olib, po'lat ishlab chiqarish mumkin.

Amaldagi texnologik jarayon davomida quyidagi turdagi chiqindilar va oraliq mahsulotlar hosil bo'ladi:

- qaytaruvchi pech eritmasidan olingan shlaklar;
- kislorod-fakelli eritish jarayonidan qolgan shlaklar;
- konvertor eritmasidan hosil bo'lgan shlaklar.

Mazkur shlaklarning tarkibida asosiy rudalarga nisbatan ko'proq qiymatga ega metall komponentlar mavjud bo'lib, bu ularni qayta ishlash va undan foydalanish imkoniyatini oshiradi.

O'zbekistonning qora metallurgiyasi uchun qo'shimcha xomashyo manbai sifatida "O'zmetkombinat" AJ faoliyatida hosil bo'ladigan po'lat eritish shlaklari xizmat qiladi. Kombinatning chiqindi maydonlarida 3 ming tonnadan ortiq shlak to'plangan bo'lib, har yili taxminan 50 ming tonna shlak ishlab chiqariladi. Ushbu

shlamlardan po‘lat eritishda foydalaniladigan cho‘yan ajratib olish imkoniyati mavjud (4-jadval).

4-jadval
O‘zmetkombinat AJ statistik ma‘lumotlar¹

№	Nomi	O‘lchov birligi	2022 y.	Reja 2023 y.	Amal 2023 y.	Foizda bajarilishi
1.	Tovar hajmi amaldagi narxi	mlrd so‘m	3.2486	3.0632	4.404	143.7
2.	Tovar hajmi solishtirma narxda	mlrd so‘m	3.2486	3.143	3.180	101.2
3.	Kapital qo‘yilmalari	mlrd so‘m	0	299000	158116	52.82
4.	Ishlab chiqarish	mlrd so‘m	120.7	137.2	137.6	100.3

4-jadvalda keltirilgan statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, Uzmetkombinatning jami tovar mahsuloti hajmi alamdagi narxda 2022-yilda 3.2486 mlrd so‘m bo‘lib bu ko‘rsatgich, 2023-yilga kelib 4.404 mlrd so‘m rejaga nisbatan esa 143.7 % ko‘p ekanligini ko‘rsatmoqda. Solishtirma narxlarda esa 2022-yilda 3.2486 mlrd so‘m bo‘lsa, 2023-yilda 3.180 so‘m rejaga nisbatan 101.2% ko‘p. Kapital qo‘yilmalar 2023-yilda 158116 mlrd so‘m bo‘lib, rejaga nisbatan 52.82 % kamayganini ko‘rishimiz mumkin. Ishlab chiqarish hajmi 2023-yilda 100.3%ga o‘sganini ko‘rsatmoqda (5-jadval).

5-jadval
O‘zmetkombinat AJ ning 2023-yil yakuni bo‘yicha iqtisodiy ko‘rsatgichlari²

№	Ko‘rsatgichlar	Birligi	2022 y. amalda	2023 y. amalda	Bajarilish foizda	O‘sish sur‘ati foizda
1.	Sanoat mahsulotlari hajmi	mlrd.so‘m	5381.0	5381.0	159.6	107.0
2.	Ishlab chiqarish hajmi	ming tonna	1026000	1075395	104.8	106.5
3.	Sof tushum	mlrd so‘m	5299.3	7257.8	115.1	157.6
4.	Tannarxi	mlrd so‘m	4337.1	4942.8	113.9	129.8
5.	Eksport hajmi	mlrd doll	201.5	253.1	115.6	107
6.	Importni qisqartirish	mlrd doll	26.0	25.6	102.8	-
7.	Invistsiyalar	mlrd doll	-	93.0	63.1	-
8.	Davlat oldidagi soliqlar	mlrd so‘m	568.0	794.0	145.1	203
9.	Sof foyda	mlrd so‘m	220.3	1471.2	111.6	67.0
10.	Rentabellik darajasi	foizda	4.1	21.6	-	-

Yuqoridagi jadval asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin, Uzmetkombinat sof tushumi 2023-yilga kelib 157.6% o‘sgan bo‘lib, 7257.8 mlrd so‘mni ko‘rsatmoqda. Mahsulot tannarxi esa joriy yilga kelib, 4942.8 bo‘lib, rejaga nisbatan, 113.9% ko‘payganligini ko‘rish mumkin. Eksport hajmi esa 2023-yilga kelib o‘tgan yilga

¹ Muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi

nisbatan ko'paygan bo'lib, 253.1 mlrd dollar bo'lib rejaga nisbatan 115.6% oshgan. Import hajmi esa rejaga nisbatan 102.8% qisqartirildi. Bu kompaniya uchun ijobiy ko'rsatgichdir. Rentabellik darajasi qancha yuqori bo'lsa kompaniya uchun shuncha ijobiy hisoblanadi. 2023-yilga kelib 21.6% ko'rsatmoqda. Ma'lumot uchun bu ko'rsatgich o'tgan yilda 4.1% ni ko'rsatgandi.

Xulosa, 2024-yil O'zmetkombinat AJ sanoat mahsulotlari 2023-yilda 9217.6 mlrd so'm ishlab chiqilgan bo'lsa, birgina 2024-yilning birinchi choragida 2190 mlrd so'mni tashkil etmoqda. Ishlab chiqarish, jumladan, navli prokat hajmi joriy yil yakunida 534 ming tonna bo'lib, rejaga nisbatan 31.8 % kam ishlab chiqarilgan. Po'lat sharlar esa o'tgan yilda 248 ming tonnani ko'rsatgan bo'lsa 2024-yil yanvar dekabr oylarida 246 ming tonnani tashkil etmoqda. Sof foyda joriy yilning yanvar sentabr oylarida 289 mlrd so'm bo'lib bu ko'rsatgich rejaga nisbatan 47% ga kam. Kombinatning rentabellik darajasi joriy yilning yanvar iyun oylarida 7.70% bo'lib bu o'tgan yilga nisbatan sal kam yarim barobar deganidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini himoya qilish mamlakat taraqqiyoti va xalq farovonligining garovidir. – T.: O'zbekiston, 2017.-48 b.
2. Mirziyoyev Sh. M. Biz buyuk kelajakni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.-488 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 24-yanvar. – Xalq so'zi, 2020-yil 26-yanvar.
4. Azimovna M. S. (2022). Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences. Professor of Samarkand Institute of Economics and Service, Samarkand, Uzbekistan. Formation of Psychology and Pedagogy as Interdisciplinary Sciences, 1(9), 20–23.
5. Musayeva S., & Usmanov F. (2022). Ways to develop marketing activities in tourist organizations. Science and Innovation, 1(A5), 84–88.
6. Azimovna M. S., Ilkhomovna U. D., & Shokhrukhovich U. F. (2022). Issues of improving productivity competition in agriculture. Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali, 51–53.
7. Azimovna M. S., Ilkhomovna U. D., & Shokhrukhovich U. F. (2022). The role of marketing in increasing the economic efficiency of service enterprises.
8. Azimovna M. S., Ilkhomovna U. D., & Shokhrukhovich U. F. (2022). The concept of a correct marketing policy in trade and service enterprises.
9. Musayeva S. (2022). Studying the organization of advertising activities of goods at “Samarkand Tea Packaging Factory” JSC. Science and Innovation, 1(A6), 185–192.
10. Musayeva S. (2022). Prospects for the development of “Stekloplastik” LLC activity in the conditions of the market economy. Science and Innovation, 1(A6), 539–546.
11. Azimovna M. S., Ilkhomovna U. D., & Shokhrukhovich U. F. (2022). Importance and characteristics of brand choice in services. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 1–3.

12. Musaeva Sh. A. Marketing tadqiqotlari. Darslik. “STAR-SEL” MChJ nashriyoti, Samarqand, 2023.

13. Musaeva Sh. A. Integrallashtirilgan marketing kommunikatsiyasi. O‘quv qo‘llanma. “Mahorat” nashriyoti, Samarqand, 2022.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, noyabr, 11-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**